

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI ILMY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

MASHARIPOV AZAMAT KOMULJONOVICH

**TALABA-YOSHLAR SOG‘LIG‘I VA JISMONIY RIVOJLANISHIGA
TURIZMNING TA‘SIRI VA IJTIMOY AHAMIYATI**

13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on pedagogical
sciences**

Masharipov Azamat Komuljonovich

Talaba-yoshlar sog‘lig‘i va jismoniy rivojlanishiga turizmning ta‘siri va
ijtimoiy ahamiyati 3

Машарипов Азамат Комулжонович

Социальное значение и влияние туризма на здоровье и физическое
развитие студенческой молодёжи..... 25

Masharipov Azamat Komuljonovich

The impact and social significance of tourism on the health and physical
development of student youth..... 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 53

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 RAQAMLI ILMY KENGASH
ASOSIDA TUZILGAN BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI**

MASHARIPOV AZAMAT KOMULJONOVICH

**TALABA-YOSHLAR SOG‘LIG‘I VA JISMONIY RIVOJLANISHIGA
TURIZMNING TA‘SIRI VA IJTIMOY AHAMIYATI**

13.00.04 - Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.1.PhD/Ped2332 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (cspi.uz.ilmiy-kengash) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Ko‘palov Sanjarbek Ulug‘bekovich pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	Raxmatova Dilnoza Nigbayevna pedagogika fanlari doktori, dotsent Qorayev Samaraddin Barakayevich pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktiri (PhD)
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil “____” _____ soat ____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. (Tel.(+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: tvchdpi@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. (Tel.(+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: tvchdpi@edu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “____” _____ da tarqatildi.

(2023-yil “____” _____ da _____ - raqamli reestr bayonnomasi).

J.E.Usarov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

D.M.Maxmudova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.d., professor

R.A.Eshchanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida aholi salomatligini mustahkamlash, sog‘lom millatni shakllantirish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish hamda mehnat qobiliyati va mehnat samaradorligini oshirish masalalari ustuvor yo‘nalishlardan bo‘lib qolmoqda. Hozirgi vaqtda dunyodagi ekologik muammolar, sog‘lom turmush tarzi tamoyillariga amal qilmaslik bir qator salomatlik bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun inson salomatligini ilmiy jihatdan asoslangan turli vositalar orqali yuqori darajaga ko‘tarish muammosi muhim ahamiyatga egadir.

Dunyo amaliyotini kuzatish natijasida shunga amin bo‘lish mumkinki, sportga ixtisoslashmagan oliy ta‘lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda funksional holatini o‘rganish, sport turlari bo‘yicha texnik-taktik harakatlar samaradorligini oshirish yuzasidan ko‘plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Shu qatorda aholining barcha qatlamlarini ommaviy sport bilan shug‘ullanishga jalb qilish, oliy ta‘lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning jismoniy tayyorgarligi hamda funksional holatini tadqiq qilish, iqlimiy hamda ekologik shart-sharoitlarni inobatga olgan holda sport-sog‘lomlashtirish turizmini amaliyotga joriy qilish talabi keskin oshmoqda. Sportga ixtisoslashmagan oliy ta‘lim muassasalarida tahsil oluvchi talabalarning sog‘lomlashtiruvchi turizm orqali jismoniy rivojlanishi va salomatligini yaxshilash, hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirish yuzasidan bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ilmiy va statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, oliy ta‘lim muassasalarida talabalarida jismoniy tarbiya bilan shug‘ullanish oqibatida organizmning harakat faolligiga bo‘lgan ehtiyojining faqatgina 12% qondiriladi. Aynan shu nuqtai nazardan talaba yoshlarning salomatligini turli vositalar, jumladan, sport-sog‘lomlashtirish turizmi orqali mustahkamlash muammosi o‘ta dolzarbdir.

Respublikamizda oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish raqobatbardosh, jismonan va ma‘nan yetuk, keng doiradagi intellektual salohiyatga, yuqori ishchanlik qobiliyatiga, hayotiy ko‘nikmalarga ega malakali kadrlarni tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda.¹ Shu bilan birga, oliy ta‘lim muassasalarida jismoniy tarbiyaga ajratilgan soatlarning kamayib borishi kuzatilmoqda. Bundan kelib chiqib, talaba yoshlarning jismoniy holati va salomatligi bilan bog‘liq muammolarning oldini olish, sog‘lom turmush tarziga jalb qilish, hayotiy zarur ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning jismoniy tayyorgarligi hamda funksional holatini yaxshilash maqsadida talaba yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo‘lgan qiziqishlarini ilmiy o‘rgangan holda darsdan tashqari vaqtlarda sport turlari bilan bir qatorda turizm to‘garaklarini tashkil qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Sport-sog‘lomlashtirish turizmi, ayniqsa piyoda sayr-sayohatlar talaba yoshlar salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzi tamoyillariga rioya qilish, jismoniy faollikini oshirida samarali

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning “Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish masalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda”gi nutqi, 2018 yil 21 sentyabr, “Xalq so‘zi gazetasi”, 1-2 bet.

vositalardan biri bo'lib, uni OTM ta'lim jarayoniga joriy etish, buning uchun davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlarini takomillashtirish taqozo etiladi.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-sonli «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2019-yil 29-yanvardagi 65-sonli «O'zbekistonda sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va aholini jismoniy tarbiya va ommaviy sportga jalb etish to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktabrdagi PF-6099-son “Sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni, “Turizm, sport va madaniy meros soxalarida davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6199-sonli farmoni, “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2018-yil 7-fevraldagi PQ-3514-sonli qarori, “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2022- yil 30-apreldagi PQ-232-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va jismoniy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2020-yil 19-noyabrdagi 735-sonli qarori, shuningdek, jismoniy tarbiya va sportni ommalashtirishni targ'ib qilish sohasidagi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I.«Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» bilan bog'liq ustuvor yo'nalishlari doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamiz pedagogik olimlari tomonidan oliy ta'lim muassasalari talabalarini jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, ularni sog'lig'i va qiziqishlarini inobatga olgan holda o'quv jarayoni doirasida va o'qishdan tashqari jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish mashg'ulotlarni tashkil etish, shuningdek, sog'lom hayot tarzini kechirishga o'rgatish, salomatligini mustahkamlash, morfofunktsional hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish bo'yicha V.Sh. Raximov, T.E. Nabiev, A.A. Abduraxmanova, V.S. Kosimova, K.B. Muxammadiev va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida talabalarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish, salomatligini saqlash va mustahkamlashda sport-sog'lomlashtirish turizmi vositasidan foydalanish uslublari, shuningdek sport-sog'lomlashtirish turizmining jismoniy tarbiyada vositalar majmuasi bo'lib xizmat qilishi masalalariga oid tadqiqotlar I.N. Ovsyannikova, Yu.A. Vasilkovskaya, V.A.Kvartalnov, O.O. Brilliantova, A.A. Fedyakin, V.I. Radchenko, V.V. Lixoletov, D.A. Pochebut, T.Yu. Tarasenya, B.X. Gadjiev va boshqalar tomonidan olib borilgan.

Xorijiy yetakchi mutaxassislarining aholi o'rtasida, jumladan aholi qatlaminin g ijtimoiy faol guruxlari bo'lgan talaba yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishda sport turizmi vositasidan foydalanishning dolzarb muammolari J.Standeven, P.D.Knop, D.M.Turco. R.Riley, K.Swart va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Dissertatsiya tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №V/I/4 "Ta'lim muassasalarida, aholi turar joylarida, dam olish, sog'lomlashtirish oromgohlarida, tashkilot va korxonalarda turizmni tashkil etish va rivojlantirish muammolari" mavzusidagi fundamental ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi sport-sog'lomlashtirish turizmi vositasida mutaxassisligi jismoniy tarbiya bo'lmagan talabalarining salomatligini mustahkamlash, morfofunktsional hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishni tajribada asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

mutaxassisligi jismoniy tarbiya bo'lmagan talabalarining jismoniy rivojlanishi, morfofunktsional va jismoniy tayyorgarlik darajasining yillik dinamikasini aniqlash;

mutaxassislar va oliy ta'lim muassasasining jismoniy tarbiyaga ixtisoslashmagan yo'nalishlarida tahsil oluvchi talaba yoshlarning jismoniy tarbiya va sportga bo'lgan munosabatlarini aniqlashtirish, anketa savollari va sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlarining uslubiy tuzilmasini ishlab chiqish; oliy ta'lim muassasasi talabalarini sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlari jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi turizm elementlarini qamrab olgan harakatli o'yinlarini saralash; sport-sog'lomlashtirish turizmi dasturini ishlab chiqish va turizmga ixtisoslashgan mashqlar majmuasini qo'llash asosida dam olish kunlaridagi algoritmlangan piyoda yurish turizmi yo'nalishlari orqali talaba yoshlarning jismoniy rivojlanishi, morfofunktsional holati va jismoniy tayyorgarlik darjasiga ta'sirini tajribada asoslash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida Urganch davlat universitetining jismoniy tarbiyaga ixtisoslashmagan yo'nalishlarida tahsil oluvchi talabalarni sog'lomlashtirish va jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish jarayoni belgilanib, Urganch davlat universiteti, Urganch davlat pedagogika instituti va O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetlari talabalari ishtirok etishdi.

Tadqiqot predmeti oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlarini tuzishda turistik yo'nalishlar bo'yicha sayr-sayohatlardan foydalanishning tashkiliy-metodik asoslari hamda morfofunktsional va jismoniy tayyorgarlikni oshirish vositalari va metodlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, anketa so'rovi, pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba, pedagogik testlash, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mutaxassisligi jismoniy tarbiya bo‘lmagan talabalarning morfofunktsional va jismoniy tayyorgarlik holatini barqarorlashtirish jarayoni obektiv ko‘rsatkichlarni qiyoslash imkonini beruvchi siklli monitoring vositasida ta‘minlanishi diagnostik kontekstda dalillangan;

sport-sog‘lomlashtirish turizmi mashg‘ulotlarining uslubiy tuzilmasi talabalarda turistik turmush malakalarini visual dinamikada intensiv rivojlantiruvchi mashqlar majmuasini hordiq va jismoniy harakat integrasiyasi muhitida integrativ qo‘llash orqali takomillashtirilgan;

sport-sog‘lomlashtirish turizmi mashg‘ulotlari jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli o‘yinlar talabalar organizmining individual hususiyatini inobatga olgan adaptiv mashqlarni variativlashtirilgan didaktik muhitning umumiy faollikni mustahkamlashni ko‘zda tutuvchi garmonik jarayonida differensiallikda saralash asosida takomillashtirilgan;

turizm mashg‘uloti mazmuni va didaktik ta‘minoti notanish makonda mo‘ljallanish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi individual dasturni akademik va sayohat mashg‘ulotlarida variativlikda qo‘llash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mutaxassisligi jismoniy tarbiya va sport bo‘lmagan oliy ta‘lim muassasasi talabalari uchun turizm elementlari bo‘lgan harakatli o‘yinlar va turistik estafetalarni qo‘llash asosida sport-sog‘lomlashtirish turizmi mashg‘ulotlarini tuzish dasturi va dam olish kunlariga mo‘ljallangan algoritmlangan yo‘nalishlar ishlab chiqilgan;

mutaxassisligi jismoniy tarbiya va sport bo‘lmagan oliy ta‘lim muassasasi talabalari uchun tajribaviy usuliyatning joriy qilinishi asoslangan;

sport-sog‘lomlashtirish turizmi mashg‘ulotlari talabalarning morfofunktsional holati va jismoniy tayyorgarlik darajasini va o‘quv mashg‘ulotlari samaradorligini oshirishi pedagogik tajribada asoslab berilgan;

tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar oliy ta‘lim tizimining o‘quv-sog‘lomlashtirish jarayonida, oliy ta‘lim muassasasida jismoniy madaniyat bo‘yicha yangi o‘quv dasturlar va o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarni ishlab chiqishda qo‘llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan yondashuv, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari nazariyasi va uslubiyati sohasidagi xorijiy hamda respublikamiz olimlarining fikr-mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo‘llanilganligi, ilmiy-uslubiy adabiyotlar ma‘lumotlarining yetarlicha o‘rganilganligi, zamonaviy kompyuter texnikasining ayrim dasturlarini qo‘llash yo‘li bilan matematik-statistik tahlil yordamida olingan ma‘lumotlarga ishlov berilganligi, shuningdek, dissertatsiyada keltirilgan amaliy tavsiyalar oliy ta‘lim jismoniy tarbiya metodikasining konseptual muammolarini hal qilishga yo‘naltirilganligi bilan asoslanadi, natijalar tegishli vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, tadqiqot jarayonida olingan ma‘lumotlar oliy ta‘lim

muassasasidagi sport-sogʻlomlashtirish turizmi fanining mazmunini boyitadi hamda kengaytiradi. Oliy taʼlim muassasasi mutaxassislari, talabalari orasida sport-sogʻlomlashtirish turizmi mashgʻulotlariga boʻlgan qiziqishni oshirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, asosiy nazariy qoidalar, pedagogik tajriba maʼlumotlari va amaliy tavsiyalar oliy taʼlim tizimining oʻquv-sogʻlomlashtirish jarayonida sport-sogʻlomlashtirish turizmi mashgʻulotlarini tashkil qilish va oʻtkazishda qoʻllanilishi mumkin, shuningdek ulardan boʻlajak jismoniy tarbiya oʻqituvchilari va taʼlim tizimida faoliyat yurutuvchi malaka oshirish tinglovchilari uchun mashgʻulotlarda foydalanish maqsadga muvofiq.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Talaba-yoshlar sogʻligʻi va jismoniy rivojlanishiga turizmning taʼsiri va ijtimoiy ahamiyatini tadqiq qilish boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar asosida:

mutaxassisligi jismoniy tarbiya boʻlmagan talabalarning morfofunktsional va jismoniy tayyorgarlik holatini barqarorlashtirish jarayoni obektiv koʻrsatkichlarni qiyoslash imkonini beruvchi siklli monitoring vositasida taʼminlanishi boʻyicha takliflar “Turizm” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2019 yil 02 noyabrdagi 1023-son buyrugʻiga asosan 1023-024 raqamli guvohnoma). Natijada, mazkur turizm mashgʻulotlarining mazmunan sifati oshishiga xizmat qilgan;

sport-sogʻlomlashtirish turizmi mashgʻulotlarining uslubiy tuzilmasi talabalarda turistik turmush malakalarini visual dinamikada intensiv rivojlantiruvchi mashqlar majmuasini hordiq va jismoniy harakat integrasiyasi muhitida integrativ qoʻllash boʻyicha taklif va tavsiyalar “Sport-sogʻlomlashtirish turizmi” nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-son buyrugʻiga asosan 68-364 raqamli guvohnoma). Natijada, turizm vositalari orqali talabalarni sogʻlomlashtirish algoritmi ishlab chiqilgan, talaba yoshlarning jismoniy rivojlanish, morfofunktsional holati yaxshilanishiga erishilgan;

sport-sogʻlomlashtirish turizmi mashgʻulotlari jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli oʻyinlar talabalar organizmining individual hususiyatini inobatga olgan adaptiv mashqlarni variativlashtirilgan didaktik muhitning umumiy faollikni mustahkamlashni koʻzda tutuvchi garmonik jarayonida differensiallikda saralashga doir takliflari Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi faoliyatida foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligining 2023-yil 27-apreldagi 04-01/04/20/3922-son maʼlumotnomasi). Natijada, talabalarning individual hususiyatlariga mos mashqlardan foydalanish tajribasining ommalashishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqotning asosiy holatlari va natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarning eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 19 ta ilmiy-uslubiy ish, shu jumladan 2 oʻquv qoʻllanma, Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining

doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola (2 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, ish hajmi 139 sahifalik kompyuter matni, 18 ta jadval va 7 ta rasmlarni o'z ichiga oladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi asoslab berilgan. Muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqot usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi, tadqiqotning amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, aprotatsiyasi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalar sog'lig'ini mustahkamlash va jismoniy tarbiya tizimini takomillashtirish bo'yicha adabiyotlar tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida bir qator chet el va mahalliy olimlarning mavzuga oid ilmiy-uslubiy manbalar tahlil qilingan. Shu jumladan oliy ta'lim muassasasi talabalari jismoniy tarbiya tizimida turizm, turizmga jismoniy tayyorgarlik, oliy ta'lim muassasalaridagi talaba yoshlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda ochiq havoda o'tkaziladigan o'yinlar va musobaqalarning o'rni, talabalar bilan sport-sog'lomlashtirish turizmi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish xususiyatlari, sog'lomlashtirish turizmi tizimida piyoda yurishning o'ziga xos xususiyatlari, turizmning universitet talabalarini jismoniy tarbiyalash va funksional holatini yaxshilash vositasi sifatida qo'llanilishi tahlil qilingan va umumlashtirilgan bo'lib,

Talabalar sog'lig'i va qiziqishlarini inobatga olgan holda o'quv jarayoni doirasida va o'qishdan tashqari jismoniy tarbiya-sog'lomlashtirish mashg'ulotlarni tashkil etish, sog'lom hayot tarzini kechirishga o'rgatish, salomatligini mustahkamlash, morfofunktsional hamda jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirish masalalari V.Sh. Raximov, T.E. Nabiev, T.Xoldorov, X Tulenova, A.A. Abduraxmanova, V.S. Kosimova, K.B. Muxammadiev kabi olimlarning ilmiy-uslubiy ishlarida keltirilgan. Tahlillar natijasidan ma'lumki, morfofunktsional holat ko'rsatkichlar nisbati bilan baholanadi, shu bilan birga tana vazni va ko'krak qafasi atrofi tana uzunligiga nisbati hisobga olinadi. Talabalarning jismoniy tayyorgarligi ularning fiziologik holati bilan bog'liq ravishda kechadi. Jismoniy mashqlar davomida talabaning salomatligini muayyan davrda, ya'ni siklli kuzatish kerak va bunda dinamika tahlil qilinadi. Agar dinamika barqaror va ijobiy o'sish ko'rsatkichida bo'lsa, demak mashqlar talaba organizmi uchun mos adaptivlashtirilgan hisoblanadi.

Qiyosiy tahlillar natijasida ayon bo'ldiki, hozirgi vaqtda talaba yoshlarning sog'lig'i, jismoniy rivojlanishi va morfofunktsional holati, jismoniy tayyorgarlik darajasini o'rganish dolzarb muammolardan bo'lib qolayotgan bo'lsada, ammo mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli emasligi tadqiqot predmeti sifatida juda kam o'rganilganligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotning uslublari va tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot oldiga qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, anketa so'rovi, pedagogik kuzatish, pedagogik nazorat (test sinovlari), pedagogik tajriba, matematik statistika usullari, tadqiqotning tashkil qilinishi va o'tkazilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Tadqiqot 2020-2022 yillar davomida 4 bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich, tahliliy va metodik izlanish bosqichi bo'lib, 2020 yil yanvar-avgust oylarida olib borildi. Mazkur bosqichda mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy-uslubiy adabiyotlari tahlil qilindi va umumlashtirildi. Tadqiqotning muammosi va dolzarbligini, maqsadi va vazifalari, belgilab olindi, ilmiy farazni shakllantirish amalga oshirildi.

Ikkinchi bosqich (2020 yil sentabr-2021 yil avgust oylari) – bir qator vazifalardan iborat bo'lib: 2020 yil sentabr-2021 yil may oylarida mutaxassisligi jismoniy tarbiya bo'lmagan talabalarning jismoniy rivojlanishi, morfofunktsional holati va jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash bo'yicha o'quv yilining boshi sentabr oyida dastlabki testlar olindi. Birinchi semestr oxiri yanvar oyida va 2-semestr oxiri may oylarida qayta testlar olindi. Anketa so'rovnomasi o'tkazildi. 2021 yil iyun-avgust oylarida sport-sog'lomlashtirish turizmi dasturi va algoritmlangan yo'nalishlar ishlab chiqildi.

Uchinchi bosqich (2021 yil sentabr-2022 yil may oylari) – asosiy tajriba bosqichi bo'lib. Sport-sog'lomlashtirish turizmi dasturi sinovdan o'tkazildi. Mutaxassisligi jismoniy tarbiya bo'lmagan talabalar orasida jismoniy rivojlanishi, morfofunktsional holati va jismoniy tayyorgarlik darajasi bo'yicha olingan dastlabki test natijalari bir-biriga yaqin bo'lgan 55 nafar talaba saralab olinib, tajriba (TG-n=27) va nazorat (NG-n=28) guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhi talabalari biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dastur samaradorligini tajribada asoslash uchun sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlarida ishtirok qildilar hamda dam olish kunlarida algoritmlangan yo'nalishlarda sayrlarda qatnashdilar. O'quv yilining boshi sentabr oyida talabalarning jismoniy rivojlanishi, morfofunktsional holati va jismoniy tayyorgarlik darajasi bo'yicha dastlabki testlar olindi. Birinchi semestr oxiri yanvar oyida va 2-semestr oxiri may oylarida qayta testlar olindi.

To'rtinchi bosqich (2022 yil iyun-dekabr oylari)– yakuniy bosqich bo'lib, tajribada olingan dastlabki va yakuniy ma'lumotlar va natijalarni tizimlashtirish, qiyosiy statistik tahlil qilish, yakuniy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta'lim muassasasi talabalari uchun sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlarining tajriba dasturini ishlab chiqish va joriy etish”** deb nomlangan uchinchi bobida, tadqiqot ishining dolzarbligidan kelib chiqib, 2020-yil sentabr oyidan 2021-yil avgust oyigacha mutaxassisligi jismoniy madaniyat bo'lmagan OTM talabalarining salomatlik ko'rsatkichlarini o'rganib, ularni qiyosiy tahlili yoritilgan. Shuningdek talabalar organizmining individual hususiyatini

inobatga olgan adaptiv mashqlar, sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlari jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantiruvchi harakatli o'yinlar asosida variativlashtirilgan. Natijada umumiy faollikni mustahkamlashni ko'zda tutuvchi garmonik jarayonni differensiallikda saralash imkonini beradi. Ma'lumki turistik turmush malakalariga notanish makonda mo'ljal olish, birinchi tibbiy yordam, huquqiy savodxonlikni namoyon qilish va boshqalar kiradi. Mazkur malakalarni mashg'ulotlar jarayonida videolavhalar yordamida vizual ravishda rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, turistik zonalar va u yerda turistlarning marshuritini sxematik ravishda namoyish etish kelajakda bu faoliyatni samarali amalga oshirishga talabalar muvaffaqiyatli tayyor bo'ladilar. Tadqiqotda sport va xordiqqa oid mashqlarni videolarda ko'rib o'zlashtirilishiga e'tibor qaratildi. Bu jihatdan turizmning ijtimoiy ahamiyatini talabalar tomonidan vizual ravishda intensiv (qisqa vaqtda ko'proq ma'lumotlar olish) o'zlashtirilishi ta'minlandi.

Dastlabki yilgi o'lchashlarda talaba yoshlarning ko'rsatkichlarda sizilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Talabalarning ko'pchiligi qoniqarsiz va qoniqarsizdan past natijalarni qayd etishdi. Ushbu muammoni o'rganish maqsadida oliy ta'lim muassasasida jismoniy tarbiya sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislardan hamda jismoniy tarbiyaga ixtisoslashmagan yo'nalishlarda tahsil oluvchi talabalar orasida anketa so'rovnomasi o'tkazildi hamda umumlashtirildi. Ulardan ayrimlarini keltiramiz: So'rovnomada ishtirok etgan jami 30 ta mutaxassislardan olingan javoblarni tahlil qilish quydagilarni aniqlab berdi.

Dastlabki savol "Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya darslari o'quv dasturida soatlar davomiyligi yetarli darajada batafsil ko'rsatilganmi?" – degan savolga mutaxassislarning javoblari quyidagicha bo'ldi, 83,3% – yo'q, yetarli daraja emas", 16,7% – ha yetarli " Bundan ko'rinib turibdiki, OTM da o'tiladigan jismoniy tarbiya darslari soati yetarli darajada emas ekan.

Ikkinchi savol "Oliy ta'lim muassasalari talabalarning umumiy funksional holati va jismoniy tayyorgarligi rivojlangan deb hisoblaysizmi?" – degan savolga mutaxassislardan 20% " ha, yaxshi, 73,3 % "yo'q, javob qaytarilgan bo'lsa, 6,7% boshqa fikrda ekanligini ma'lum qildi.

Uchinchi savol "Jismoniy tarbiya darslarida sport– sog'lomlashtirish mashqlaridan foydalanish mumkinmi?" – degan savolga mutaxassislardan 76,7% ha jismoniy tarbiya darslarida sport– sog'lomlashtirish mashqlaridan foydalanish kerak", 13,3% " yo'q, shart emas, jismoniy tarbiya dasturlariga asoslangan holda olib borish maqsadga muvofiq deb javob berishdi, 10% mutaxassislar boshqa fikrda qolishdi.

To'rtinchi savol "Jismoniy tarbiya darslarini noan'anaviy sport mashg'ulotlari shaklida olib borsa bo'ladimi?" – degan savolga 90% respondentlar " ha, albatta, jismoniy tarbiya darslarini noan'anaviy sport mashg'ulotlari shaklida o'tkazish mumkin, degan fikrni bildirishgan bo'lsa, 10% " yo'q, dastur asosida boshqa sport turlaridan foydalanib o'tkazsa bo'ladi, degan fikrni bildirdi.

Beshinchi savol "Oliy ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashmagan yo'nalishlarda sport-sog'lomlashtirish turizmi fani dars sifatida o'tilishiga qanday qaraysiz?" – degan cavolga mutaxassislardan 70% maqsadga muvofiq

bo'lardi, jismoniy madaniyat fakultetlaridan tashqari boshqa yo'nalish talabalariga ham sport-sog'lomlashtirish turizmi fani dars sifatida o'tilishi kerak, 20% mutaxassislar jismoniy tarbiya va sport-sog'lomlashtirish turizmi dars soatlari uyg'unlashtirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi, 10% mutaxassislar dastur asosida o'tilsin, boshqa sport turlari kiritilsin degan javobni berishdi.

So'rovnomada ishtirok etgan jami 182 ta jismoniy tarbiyaga ixtisoslashmagan yo'nalishlarda tahsil oluvchi talabalardan olingan javoblarni tahlil qilish quydagilarni aniqlab berdi.

Dastlabki savol "Siz, jismoniy tarbiya darslarini yoqtirasizmi?" –degan cavolga Talabalardan 66,5% ha, jismoniy tarbiya darslarini juda yoqtiraman, 23,1% talabalar jismoniy tarbiya darslari o'rniga sport o'yinlari ko'proq o'tilsa maqsadga muvofiq bo'lardi, degan javobda qolishdi. 10,4% talabalar yo'q, jismoniy tarbiya darslariga kirmayman, sog'lig'im to'g'ri kelmaydi, degan javobni berishdi.

Ikkinchi savol "Jismoniy tarbiya darslari sport-sog'lomlashtirish turizmi elementlari bilan o'tilishiga qanday qaraysiz?" –degan cavolga 69,2% Talabalar ha, jismoniy tarbiya darslari sport-sog'lomlashtirish turizmi elementlaridan foydalanib olib borilsa va dam olish kunlari sayrlarga olib chiqilsa, degan javobni berishdi. 9,4% talabalar dasturda belgilangan talabalar bo'yicha olib borilsa bo'ldi, degan fikrni bildirishdi. 21,4% talabalar turizm fan sifatida alohida o'tilsa yanada yaxshi bo'lardi degan fikrni bildirishdi.

Uchinchi savol "Jismoniy tarbiya darslaridan tashqari sog'lomlashtiruvchi sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanishni xohlaysizmi?" –degan cavolga 61,5% talabalar ha, shug'ullanishni xohlayman, 23,1% talabalar sog'lomlashtirish va sog'lom turmush tarzi haqida bilimlar hajmini oshirsak yaxshi bo'lardi, degan fikrni ma'lum qilish. 15,4% talabalar jismoniy tarbiya darslarining o'zi yetarli darajada degan fikrni bildirishdi.

To'rtinchi savol "Sport bilan shug'ullanishga nima to'sqinlik qiladi?" –degan cavolga 24,7% talabalar sport bilan shug'ullanishi, 47,8% boshqa fanlardan o'quv vazifalarning ko'payib ketishi, vaqtning yetishmasligi va o'tkazilgan o'quv mashg'ulotlardan so'ng surunkali toliqishni, 17,6% talabalar qad-qomatdagi kamchiliklar yoki jismoniy tayyorgarlik darajasining pastligini va shu sababli uyalishlarini, mashqlarni bajarishda zarur ko'nikmalarning yoki qiziqishni yo'qligi, sport bilan shug'ullanishga motivatsiyaning yo'qligi, ma'lum qilishgan bo'lsa, 9,9% talabalar o'zlarining bo'sh vaqtlarini boshqa faoliyat turlari bilan to'ldirishni afzal ko'rishlarini bildirishgan.

Beshinchi savol "Siz darsdan tashqari sport-sog'lomlashtirish turizmi bilan shug'ullanishni xohlaysizmi?" –degan cavolga 81,9% talabalar ha, sport-sog'lomlashtirish turizmi bilan shug'ullanish xohshim bor, 13,7% talabalar boshqa sport turi bilan shug'ullanaman, 4,4 % talabalar turizmni boshqa shakillari bilan shug'ullanishni hohlamayman degan javobni bildirishdi.

Anketa so'rovnomasi natijalari tahlilidan ma'lum bo'ldiki, talaba yoshlarning jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga bo'lgan ehtiyojlari yuqori bo'lib, sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlari dasturni ishlab chiqish va amaliyotga joriy

etish dolzarbligini ko'rsatdi. Tadqiqot maqsadini amalga oshirish, talabalarni jismoniy tarbiya va sportga jalb qilish hamda salomatligini saqlash va mustahkamlash maqsadida sport-sog'lomlashtirish turizmi asosida mashg'ulotlar dasturi hamda algoritmlangan yo'nalishlar ishlab chiqildi. "Sport-sog'lomlashtirish turizmi" dasturining o'quv va mavzuiy qismi bir yillik o'qish uchun taqsimlangan bo'lib, ta'lim muassasalarida turizmga yo'naltirilgan mashg'ulotlarning mavjud usullarini tahlil qilish asosida, shuningdek, pedagogik kuzatuvlar natijalari va murakkab uskunalarni talab qilmasligi, talabalar uchun ularning qulayligini hisobga olgan holda amalga oshirildi (1-jadval).

1-jadval

“Sport-sog'lomlashtirish turizmi” dasturlarining 1 yillik ta'lim uchun o'quv- mavzuiy bo'limi taqsimoti


T/r	Dastur bo'limlari	Dastur	
		soati	foizida, %
1.	Kirish	4	1,9 %
2.	Turistik turmish malakalari	34	15,7 %
3.	Topografik bilimlar	14	6,5 %
4.	Mo'ljal olish malakalari	34	15,7 %
5.	Gigiena va birinchi tibbiy yordam	18	8,3 %
6.	O'lkashunoslik bilimlar	12	5,6 %
7.	Sport-sog'lomlashtirish yo'nalishi, turizmga ixtisoslashgan mashqlar majmuasi	100	46,3 %

Tajriba guruhiga jalb qilingan talabalari ishlab chiqilgan dastur bo'yicha haftasiga uch marotaba ikki akademik soatdan sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlarida shug'ullandilar, bu o'quv yiliga jami 216 soatni tashkil qiladi. Dastur asosiy bo'limlar va dastur materiallarini o'tish ketma-ketligi namunaviy 2-jadvalda keltirilgan.

Sport-sog'lomlashtirish dasturga kiritilgan yo'nalishlarni qisqacha mazmuni quydagilardan iborat: **Kirish:** Turizmning sog'lomlashtirishdagi o'рни; Turistlarning o'zini tutish qoidalari. **Turistik turmish malakalari:** tabiiy muhitda xavfsizlik texnikasi, uyda va oliygohda xavfsizlik texnikasi; shaxsiy anjomlar va ularni asrash, turistik sayrda suv ichish rejimi, guruh jihozlari va va ularni saqlash, navbatchilarni tashkil qilish va tabiatni qo'riqlash, turistik sayrlar. **Topografik bilimlar:** Mening uyim, mening universitetim yo'nalishlar loyixasini tuzish, Joy rejasini tuzish, Shartli belgilarni aniqlash. **Mo'ljal olish malakalari:** Ufq tomonlari bo'yicha mo'ljal olish, joyda mo'ljal olish, mo'ljal olish usullari, turistik sayrlarda mo'ljal olish. **Gigienasi va birinchi yordam:** Turistlar shaxsiy gigienasi, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish, yaralarni tozalash va bog'ichlar qo'yish, yakka va gurux tibbiy dori qutichalari, jaroxatlangan, yurish holiga ega bo'lmaganlarni tashish yoki to'siqlardan olib o'tish

usullari. **O‘lkashunoslik bilimlar:** Mening o‘lkam tabiati, turistik sayrlarda ta’lim muassasasi, jamoat, davlat yoki ilmiy o‘lkashunoslik ishlari bilan tanishtirish. **Sport-sog‘lomlashtirish yo‘nalishi, Sport-sog‘lomlashtirish turizmiga ixtisoslashgan mashqlar majmuasi:** Turizm elementlari bilan ochiq havoda o‘tkaziladigan o‘yinlar va estafetalar majmuasini qo‘llash orqali talabalarni sog‘lomlashtirish, jismoniy sifatlarini va jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish. Tibbiy ko‘rik va nazorat.

Sport-sog‘lomlashtirish turizmi dasturning asosiy bandi. Sport-sog‘lomlashtirish yo‘nalishi, turizmga ixtisoslashgan mashqlar majmuasi bo‘lib, u o‘quv yili uchun ishlab chiqilgan, ikkita semestrta taqsimlanib, talaba yoshlarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish va sog‘lig‘ini yaxshilashga qaratilgan 1-rasm.



1-rasm. “Sport-sog‘lomlashtirish yo‘nalishi, turizmga ixtisoslashgan mashqlar majmuasi” dan 1 va 2-semestrda foydalanish ko‘rsatkichlari, %.

Talabalarda jismoniy sifatlari - turli harakatli o‘yinlar asosida rivojlantiriladi. Mazkur jismoniy sifatlari turizmga muhim hisoblanadi. Mashqlarni talabalarning individual tana xususiyatlariga mos tanlash va saralash maqsadga muvofiqdir. Saralangan mashqlarni talabalarning fiziologik barqaror dinamik holatlariga mos tashkil etilgan jarayonda qo‘llasa, talabalar uchun ijobiy ta’sir qiladi, aks holda esa, salomatlikka zarar yetishi mumkin. Har bir talabaning jismoniy imkoniyatlariga mos holda mashqlarni turkumlagan holda mashg‘ulotlarda qo‘llashga tadqiqotda e’tibor qaratildi. Ushbu sport-sog‘lomlashtirish turizmi mashg‘ulotlarining uslubiy tuzilmasi talabalarda turistik turmush malakalarini visual dinamikada intensiv rivojlantiruvchi mashqlar majmuasini hordiq va jismoniy harakat integrasiyasi muhitida integrativ qo‘llash imkonini beradi.

Sport-sog‘lomlashtirish turizmi mashg‘ulotlarining uslubiy tuzilmasida berilgan va tajribada qo‘llanilgan **turistik yunalishlar bo‘yicha o‘yinlarning** nomlari berilgan (3-jadvalga qarang).

**Sport-sogʻlomlashtirish turizmi dastur materialini oʻtish
reja – jadvali (oktabr-yanvar)**

T/r	Dastur boʻlimlari	Mashgʻulot raqamlari																										
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	
	Nazariy maʼlumotlar	Mashgʻulotlar jarayonida																										
I	Kirish	+	+	+	+																							
II	Turistik turmush malakalar	+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+
III	Topografik bilimlar		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+	
IV	Moʻljal olish malakalari	+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+
V	Gigiena va birinchi tibbiy yordam		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+	
VI	Oʻlkashunoslik bilimlar	+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+		+
VII	Sport-sogʻlomlashtirish yoʻnalishi, turizmga ixtisoslashgan mashqlar majmuasi	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+	+

Sport-sog'lomlashtirish turizmi mashg'ulotlarining uslubiy tuzilmasidagi turistik yunalishlar bo'yicha o'yinlar

№	Majmua yo'nalishlari	Rivojlantiriladigan jismoniy sifatlar	O'yinlarning nomlari
1.	Turizm elementlariga ega bo'lgan ochiq havoda o'tkaziladigan o'yinlar	Kuch, tezkorlik, chaqqonlik (koordinatsiya), egiluvchanlik, chidamlilik.	Xoda ustidan o'tish, do'stim, terakni berib tur, ovozga mo'ljal olish, bayroqcha tomon, do'ngliklar bo'ylab, osilgan tarzda o'tish, o'rmon bo'ylab yugurish, suv tashuvchilar, toshchani olish, nayza, ko'z bilan chamalovchi, belgilar, do'stim, savatcha, botqoqlik orqali o'tish, kim uzoqroq, yuk xaltaga joylashtir, chegaralangan yo'lakda quvlashmashoq, nishablik bo'ylab yuqoriga, eng e'tiborli, vaqtni xis et, mergan otuvchi, o'rmon – botqoqlik – ko'l, ko'z bilan chamalashni rivojlantir.
2.	Arqon va alpenshtokli o'yinlar		Arqon bilan mashqlar; gorizontol xolatdagi arqon ustida mashqlar, vertikal arqon ustidagi mashqlar, uddaburon o'rovchilar, toshchani ol, ko'rmasdan tugun bog'lash, arqon tortish, harakatli ring, kim kuchliroq?, muvozanat saqlash bo'yicha mashq, Alpshtok bilan mashqlar: nayzacha otuvchilar, kabutar, yer o'lchovchilar, chiziq ortiga tort, ushla.
3.	Turistik attraksionlar		Koordinatsiyani tekshirish, viktorina, qopqon bilan yugurish, oyoq belanchaklari, ipni yoki arqonni bog'lash usullari. jamoaviy sakrash.
4.	Joylarda mo'ljal olishni o'rgatish o'yinlari		Dunyo tomonlari, kompasni mo'ljallash, nishonga tekkiz», xazina axtarish, mo'ljalni top, masofani aniqla, olis masofani aniqlash.
5.	Sportcha chamalab topish musobaqalari		Tez belgilash bellashuvi, joyda mo'ljal olish bellashuvi, sportcha chamalab topish bellashuvi.
6.	Turizm elementlari bilan estafetalar		Turistik (o'rmon) estafeta, turistik (ta'lim muassasa) estafeta, turistik yo'lak, harakat usullarini almashtirib estafeta, o'rmalash va tirmashish estafetasi, turistik tez yordam, muvozanat elementlari bilan estafeta, to'siq yo'lagida estafeta, o'rmon jumbog'i estafetasi.

Dissertatsiyaning **“Oliy ta’lim muassasasi talabalari uchun sport-sog‘lomlashtirish turizmi dasturining samaradorligini tajribada asoslash”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida mutaxassisligi jismoniy tarbiya bo‘lmagan OTM talaba yoshlarini sog‘lomlashtirish va jismoniy tayyorgarligini oshirishda biz tomonimizdan ishlab chiqilgan dastur va algoritmlangan piyoda yurish yo‘nalishlari hamda dasturdagi turizm mashg‘uloti mazmuni va didaktik ta‘minoti, notanish makonda mo‘ljallanish ko‘nikmalarini shakllantiruvchi individual dastur samaradorligini baholash uchun akademik va sayohat mashg‘ulotlarida variativlikda qo‘llash bo‘yicha pedagogik nazorat testlarining qiyosiy tahlili yoritilgan.

Oliy ta’lim muassasasi talabalarida olib borilgan pedagogik tajriba natijalari tajriba va nazorat guruhlarida bo‘yicha talabalarning jismoniy rivojlanish, morfofunksional holati ko‘rsatkichlarining qiyosiy statistik tahlili 4-jadvalda berilgan.

Tajriba guruhida tana uzunligi o‘rtacha 172.4 sm., o‘quv yili oxirida o‘rtacha 174.4 sm.ni, tashkil qilib, natijalar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=0.59$; $P>0.05$). Nazorat guruhida esa o‘quv yili boshida o‘rtacha 172.9 sm.ni, o‘quv yili oxirida esa 174.9 sm.ni tashkil etib, ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi. ($t=0.56$; $P>0.05$). Tana vazni tajriba guruhida o‘rtacha 67.7 kg.ga teng bo‘lgan bo‘lsa, o‘quv yili oxirida o‘rtacha 69.87kg.ni tashkil qilib, ko‘rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=0.99$; $P>0.05$). Nazorat guruhida esa o‘quv yili boshida o‘rtacha natija 68.1 kg.ni, o‘quv yili oxirida esa 70.01 kg.ni tashkil etib, ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi. ($t=0.74$; $P>0.05$).

Tajriba guruhida YuQS tinch holatda (marta/daqiqaga) dastlab o‘rtacha 78.4 marta/daqiqaga teng bo‘lgan bo‘lsa, o‘quv yili oxirida o‘rtacha 76.4 marta/daqiqani tashkil qilib, ko‘rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=1.36$; $P>0.05$). Nazorat guruhida esa o‘quv yili boshida o‘rtacha natija 77.9 marta/daqiqaga ni tashkil etdi o‘quv yili oxirida esa 77.1 marta/daqiqaga teng bo‘lib, ko‘rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi. ($t=0.48$; $P>0.05$).

Tajriba guruhida o‘quv yili boshida sistolik arterial bosim, (mm.s.u.) o‘rtacha 118.87 mm.s.u.ga teng bo‘lgan bo‘lsa, o‘quv yili oxirida o‘rtacha 119.8 mm.s.u.ni tashkil qilib, natijalar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=0.45$; $P>0.05$). Nazorat guruhida esa o‘quv yili boshida o‘rtacha natija 119.2 mm.s.u.ni tashkil etdi, o‘quv yili oxirida esa 119.3 mm.s.u.ni tashkil qilib, ko‘rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=0.48$; $P>0.05$).

Tajriba guruhida o‘quv yili boshida diastolik arterial bosim, (mm.s.u.) o‘rtacha 77.8 mm.s.u.ga teng bo‘lgan bo‘lsa, o‘quv yili oxirida o‘rtacha 79.8 mm.s.u.ni tashkil qilib, natijalar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=1.57$; $P>0.05$). Nazorat guruhida esa o‘quv yili boshida o‘rtacha natija 78.9 mm.s.u.ni tashkil etdi, o‘quv yili oxirida esa 78.07 mm.s.u.ni tashkil qilib, ko‘rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatilmadi ($t=0.56$; $P>0.05$).

O‘pkaning tiriklik sig‘imi (mil.litr) tajriba guruhida o‘quv yili boshida o‘rtacha 3324,35 ml.ni, o‘quv yili oxirida o‘rtacha 3540,97 ml.ni tashkil qilib, natijalar orasida ishonchli statistik farqlar aniqlandi. ($t=4.13$; $P<0.001$). Nazorat guruhida esa o‘quv yili boshida 3315,5 ml.ni tashkil etdi, o‘quv yili oxirida esa 3409,4 ml.ni tashkil etib,


